

# XORIJIY TILLARGA O'RGATISH MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY YECHIMLARI

Hamidova N.Z. (SamISI)

## ANNOTATSIYA.

Bugungi kun xorijiy tillarni o'qitish metodikasida butun dunyoda ustuvor yo'nalish sifatida kommunikativ yondashuv tan olinmoqda. Juda ko'plab Yevropa mamlakatlarida xorijiy tilni o'rgatishda samarali natijalarga olib kelayotgan kommunikativ yondashuvni an'anaviy o'qitishdan farqi uning muloqotga o'rgatishga, tilning asosiy funktsiyasi – o'zaro fikr almashuvga o'rgatishga yo'naltirilganligidadir. Bundan kutiladigan asosiy maqsad, o'quvchilarni turli tutash fanlar tomonidan ilgari surilayotgan, o'quvchilarning o'quv faoliyatini samarali tashkil qilishga yordam beradigan lingvistik, psixologik, didaktik, metodik omillardan, vosita va usullardan kompleks foydalangan xolda xorijiy tilda muloqotga o'rgatishdir.

## ANNOTATION.

Today, the communicative approach is recognized as a priority in foreign language teaching methods around the world. In many European countries, the communicative approach, which leads to effective results in teaching a foreign language, differs from traditional teaching in that it focuses on teaching communication, the main function of language - teaching to communicate. The main purpose of this is to teach students to communicate in a foreign language using a complex of linguistic, psychological, didactic, methodological factors, tools and methods promoted by various disciplines, which help to effectively organize the learning activities of students.

**Kalit suzlar:** muloqot, pedagogik-metodik salohiyat, nutqiy ehtiyojlar, ko'nikma, kommunikativ vaziyatli topshiriqlar, nutq, fikr almashuv

**Keywords:** communication, pedagogical and methodological potential, speaking needs, skills, communicative tasks, speech, exchange of ideas

Xorijiy tilda muloqotga o'rgatish nutqiy vaziyatlarni o'quvchilarning muloqot ehtiyojlariga moslashtirgan holda modellashtirishni ko'zda tutadi. Bunday jarayonning samaradorligi birinchi navbatda uni rejalashtirgan o'qituvchining pedagogik-metodik salohiyatiga, keyin o'quv dasturlari va darsliklarning yangicha yondoshuv asosida tuzilishiga bog'liq. Bu o'z navbatida xorijiy tildagi nutqiy

harakatlarga o'rgatish, shu asosda muloqotga o'rgatish deb belgilanishiga asos bo'ladi. Bugungi kunda til sistemasini, uning grammatik qoidalarini egallash, bu borada ayrim lisopniy ko'nikma va malakalar shakllantirilgan taqdirda ham tilni muloqot darajasida o'zlashtirishga yordam bermayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Demak, xorijiy tillarni o'qitishdan maqsad xorijiy tilda muloqotga kirishuvni o'rnatish deya belgilar ekanmiz, bunday muloqotni o'quvchilarning nutqiy ehtiyojlariga va ularga asoslangan kommunikativ vaziyatlarga mos keluvchi kommunikativ topshiriqlar orqali o'quvchilarning nutqiy ehtiyojlariga va ularga asoslangan kommunikativ faoliyat orqali tashkil qilishning metodik, psixolingvistik, lingvodidaktik asoslari, vositalariga tayanishimiz lozim bo'ladi. Bu soha mutaxassislari I.L.Bim, O.V.Afanas'eva, O.A. Radchenkolarning fikricha xorijiy tillarda muloqotga o'rgatishga bunday yondashuv muloqot materialini o'rgatishga bunday yondashuv muloqot mazmunlarini konkretlashtirishni, muloqot materialini o'zlashtirish samaradorligini oshiruvchi kommunikativ vaziyatli topshiriqlar seriyasini yaratish, o'quv dasturlarini, darsliklarni kommunikativ yondashuv asosida qayta yaratishni ko'zda tutadi. (1999:c.13-17)

O'quvchilarning muloqot ko'nikma va malakalarini shakllantirish va takomillashtirish yangi muloqot materialini, nutqiy harakatlarni o'rnatish va mustahkamlash jarayonida tashkil qilinadi. Masalaga oid tadqiqotlarda o'quv jarayoning bunday tashkil qilinishning quyidagi strategiyasi belgilangan:

1. Muloqot vaziyatlarida o'zlashtirilgan topshiriqlar o'quvchilarga nutq materialini nima uchun o'rganish, undan qanday nutq vaziyatlarida qo'llash mumkinligi, bu nutqiy harakatning til sistemasidagi funktsiyasi haqidagi amaliy tasavvurlar hosil qilishiga olib kelishi lozim. (Salanovich N.A. 1994.c.15-17)

2. O'quvchilar o'rganilishi lozim bo'lgan muloqot materialini nutq jarayonida qo'llashning orientir asoslari (nutqiy harakat qoidalari) bilan tanishishlari lozim. (Gvozdeva A.V., Sorokovix G.V.1999: c.73-79. YAzikova N.V 1999: c.63-68).

3. Kommunikativ topshiriqlarni bajarishga o'rgatish oxir oqibatda komunikativ vaziyatlarga va nutq ehtiyojlariga mos ko'nikma va malakalar shakllanishiga olib kelishi lozim. (Mil'rud R.P., Maksimova I.R.2000.c.9-22).

4. O'quvchilarda o'rganilgan material bo'yicha fikr (munosabat) bildirish va matn tuzish darajasida qo'llash malakalarini shakllantirish lozim. Nutq mavzularini minimallashtirish, ularni leksik, Grammatik materialni o'z ichiga olgan muloqot bloklari asosida tuzish, mavzuni o'quvchilarning nutqiy ehtiyojlariga moslashtirilgan kommunikativ topshiriqlar orqali o'zlashtirishga o'rgatish, bunda o'quvchilarning qiziqishlarini, o'quv mavzusiga munosabatini shakllantiradigan audio-vizual, noverbal va emotsional ta'sir vositalaridan kompleks foydalanish, kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillaridir.

O'zbek olimlari YU.N.Abdullayev va A.M. Bushuylar nutq mavzularini minimallashtirishda quyidagi kommunikativ minimumni taklif qiladilar:

1. ijtimoiy-madaniy, 2. ijtimoiy-maishiy, 3. o'quv, 4. badiiy adabiyot, 5. axborot vositalari, 6. Fan,  
7. ish yuritish, 8. xat yozishuv, 9. ommaviy tamosholar (kino-teatr ) mavzusida tashkil qilinadigan nutq vaziyatlari. (2003:-c.33).

Muloqot mavzularini o'quvchilarning nutqiy, xayotiy ehtiyojlariga bog'liq bo'lgan mavzularga va umumiy bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan mavzularga ajratish mumkin.

Umumiy bilimlarni oshirishga mo'ljallangan muloqot mavzulariga odatda ijtimoiy-siyosiy, mamlakatshunoslikka oid nutq vaziyatlari kiritiladi. Masalan, Parijning diqqatga sazovor joylari, Fransiyaning tabiiy geografik sharoiti. xorijiy mamalakatlarda meditsina, ta'lim, san'at, va x.k. Bunday nutq vaziyatlari tarix, geografiya, jamiyatshunoslik fanlariga oid o'quv mashg'ulotlarida ona tilida o'rganilganligi, ularni xorijiy tilda muloqot material sifatida o'zlashtirilishiga, o'quvchilarning bilim doiralari, dunyoqarashlari kengayishiga olib kelishi mumkin. Ammo mavzuga oid leksik material o'quvchilar tomonidan kundalik turmushda doimiy qo'llanilmaganligi sababli, tez orada passiv leksikaga aylanadi, muloqot materialini o'rgatishga bunday yondashuv muloqot mazmunlarini konkretlashtirishni, Muloqot materialini o'zlashtirish samaradorligini oshiruvchi kommunikativ vaziyatli topshiriqlar seriyasini yaratish, o'quv dasturlarini, darsliklarni kommunikativ yondashuv asosida vazifasini bajarishi talab qilinadi.

Nazarimizda o'quvchilarning kundalik turmush sharoitida fikr bildirishga, gapirishga rag'bat uyg'otadigan nutq vaziyatlariga asoslangan muloqot mavzulari asosidan tuziladigan darslik ta'lim bosqichlarini hisobga olgan holda quyidagi mavzularni o'z ichiga olishi mumkin: 1.Mening oilam; 2.Mening ish kunim; 3.Mening dam olish kunim; Mening tarjimai holim; 5.Ob-havo; 6. Maktab;  
7. Kutubxonada; 8.Oshxonada (milliy taomlar); 9. Meva va sabzavotlar; 10. Sport (o'yinlar); 11.Kino; 12.Teatr; 13. Yil fasllari; 14.Bayramlar; 15.Mening do'stim;  
16.Xayvonot olami;  
16. Mehmonxona; 17. Bizning shahar (qishloq); 18.Sayohat; 19.Men sevgan adib;  
20. Men sevgan kasb.

Muloqot mavzularining mazmuni uning tizimli tashkil qilinishi, fonetik, leksik, grammatik material bilan uyg'unlashtirilganligi, har bir nutq mavzusiga va ular tarkibidagi leksik-grammatik materialni o'zlashtirishga ajratilgan vaqt (Mashg'ulot soati) masalasini ham qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Masalan, an'anaviy darsliklarda bir mavzu asosida talaffuzga, leksik-grammatik material bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishga 2-3 soatlik o'quv mashg'uloti

ajratilsa, muloqotga o'rgatish bu jarayonda leksik-grammatik malakalarni ham shakllantirishga 6-10 soatgacha mashg'ulot tashkil qilish taklif qilinmoqda. Bu o'quv jarayonini dasturlari va darsliklarning yangicha yondoshuv asosida tuzilishiga bog'liq. Bu o'z navbatida xorijiy tildagi nutqiy harakatlarga o'rgatish, shu asosda muloqotga o'rganish deb belgilanishiga asos bo'ladi. Shunday qilib bir o'quv yilida har bir ta'lim bosqichiga ajratilgan 80 soatlik an'anaviy darslioklardagidek 3040- nutq mavzusi emas, kamida 10 ta nutq mavzusi muloqot darajasida o'zlashtirilishi belgilanadi.

Xorijiy tillarni an'anaviy o'qitish jarayonida qo'llanilib kelinayotgan darsliklarning asosiy kamchiliklaridan biri ularga kiritilgan nutq mavzularining o'zgaruvchilarning nutqiy ehtiyojlariga, kommunikativ mos keluvchi kommunikativ topshiriqlar orqali o'quvchilarning nutqiy ehtiyojlariga va ularga asoslangan kommunikativ faoliyat orqali tashkil qilishning metodik, psiholingvistik, ling-vodidaktik asoslari o'tilishi lozim. Natijada o'quv materiali muloqot, o'zaro erkin fikr almashuv, munosabat bildirish darajasida o'zlashtirilmaydi. O'quv dasturida har bir nutq mavzusini o'zlashtirish uchun 1-2 soatdan vaqt ajratilishi esa, uning muloqot darajasida o'zlashtirilmasligiga asosiy sabablardan biri deyish mumkin.

Keyingi yillarda respublikamizda va xorijda nashr qilingan umumta'lim maktablari o'quvchilariga mo'ljallangan «Fly High English» (2009), « Happy English 2» (1997), «Bonjour la France» (2002) kabi turli sinflarga mo'ljallangan darsliklar kommunikativ yondashuv asosida nutq bloklari asosida yaratilganligi quvonarli holdir. Ammo shuni afsus bilan ta'kidlash lozimki, maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalardan aniqlanishicha, bunday darsliklar an'anaviy o'qitish metod va usullari bilan mashg'ulotlar tashkil qilishga ko'nikib qolgan xorijiy til o'qituvchilari tomonidan juda qiyinlik bilan o'zlashtirilayabdi. Binobarin bu xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlashdan malakalarini oshirishdan ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishni yanada takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ammo darsliklar tuzishda yana bir jiddiy kamchilik kuzatilmoqda. Masalan, inglizcha « Fly High English» (2009), darsligida har bir blok uchun 8 soatlik mashg'ulot belgilangan bo'lsa frantsuzcha «Bonjour la France» (2002) darstligida har bir blok uchun 4 soatlik o'quv mashg'ulotlari belgilanganiki bu muloqot materialini to'liq o'zlashtirish uchun yetarli emas. Bunday darsliklardagi dastlabki o'quv mashg'ulotlari blokdagi nutq mavzusiga oid leksik materialni tushuntirish, ko'rsatish, ularni real nutq vaziyatlarida mustahkamlash, o'rganilgan leksik materialni kommunikativ topshiriqlar orqali mustahkamlash, bunday mustahkamlashni dars jarayonida, o'quv laboratoriyasida berilgan uyga vazifani

bajarish jarayonida uch bora tashkil qilish, shundan keyingi mashg'ulotlarda o'rganilgan mavzu bo'yicha tinglab va o'qib tushunish, mavzu to'liq o'zlashtirilganidan keyin undagi fonetik, leksik, grammatik, qoidalarni o'rgatish va mustahkamlash, oxirgi mashg'ulotlarni esa, o'rganilgan nutq mavzusi bo'yicha fikrni yozma bayon qilishga o'rgatish orqali, yanada takomillashtirish mumkin, Shuningdek, darsliklarda yangi pedagogik texnologiyalardan, muloqotni tashkil qilishda interfaol usullardan hamkorlikda ishlash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yanada takomillashtirilsa, xorijiy tillarda muloqotga kirishuv samaradorligi yanada oshgan bo'lardi. Dars jarayonini yangicha darsliklar asosida bunday tashkil qilinishi, xorijiy tillarni o'qitadigan oliy o'quv yurtlari amaliyotiga ham joriy qilinsa, ularda milliy guruhi talabalari milliy xususiyatlari hisobga olinsa, bu shu paytgacha o'qituvchilar foydalanib kelayotgan, Rossiyada chop qilingan darsliklardan voz kechishga va bu bilan xorijiy ta'lim samaradorligini oshishiga keng imkoniyatlar ochib bergan bo'lardi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Абдуллаев Ю.Н..Бушуй А.М. Коммуникативная методика обучения иностранным языкам и зарубежный педагогический опыт. Учебное пособие. Самарканд,2001,130 с.*
- 2. Алмазова Н.И. Когнитивные аспекты формирования межкультурной комперенции при обучении инностранному языку в неязыковом вузе:*
- 3.Андронкина Н.М. Когнитво-деятельносный подход к формированию лингво социкультурной компетенции обучеии немецкому языку студентов языкового вуза. Авторев.дис.док.наук.Спб.:РГПУ,2009.-50с.*
- 4. Астахова Е.А. Развитие умений межкультурного общения в обучении иноязычной устной речи на начальном этапе языкового факультета (на материале немецкого языка): Автореф.дис.канд.пед. Наук.Пятигорск: ПГЛУ.25003.-19с.*
- 5.Аппатова Р.С, Корчажкина О.М.. Языковой и коммуникативный аспекты овладения английским глаголом в обобщающем курсе \ \ Иностраннные языки в школе. М.,1997,№1.с.7-14.*

6. Бим И.Л., Афанасьева О.В, Радченко О.А К проблеме оценивания современного учебника иностранного языка.// *Иностранные языки в школе*. М., 1999. №6. с.13-17.)
7. Витлин Ж.Л. Современные проблемы обучения грамматике иностранного языка. (*Иностранные языки в школе* М., 2000. №5. с.22-23.
8. Гваздева А.В., Сороковых ГюВю Индивидуальные особенности восприятия и познания при изучении иностранного языка. \\ *Иностранные языки в школе* М., 1999. №5. с.73-79;
9. Елизарова Г.В. Формирование межкультурной компетенции студентов в процессе обучения иноязычному общению: Автореф. дис... док. пед. наук. Спб. РГПУ, 2001. -38.
10. Жалолов Ж.Ж. Четил воситасида маданиятлараро мулокотни ургатиши еки коммуникатив методика хусусида. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент: ТДПУ, 2008. 124-127 бетлар.
11. Махкамова Г. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка. Изд. «Фан». Тошкент: 2010. -207с.
12. Мильгруд Р.П., Максимова И.Р. Современные концептуальные принципы коммуникативного обучения иностранного языка. \\ *Иностранные языки в школе* М., 2000. №4. с.17-22;
13. Салонюва Н.А. Проблемы мотивации и роля упражнений при обучении французскому языку в старших классах *Иностранные языки в школе* М., 1998. №1. с.15-17.
14. Софонова В.В. Сициокультурный подход к обучению иностранным языкам как специальности: Дис.. док. пед. наук М.: РГБОД. 2007 Электр. Версия. -675с.
15. Скалкин В.Л. Сферы устного язычного общения речи. \\ *Русский язык за рубежом*: М., 1983, №4 с.43-48.
16. Тер-Минасова С.Г Синтагматика функциональных стилей и оптимизация преподавания иностранных языков М., МГУ, 1986. 164с.
17. Трегубова Е.Н. Подготовка учителя иностранного языка по специальности «Лингвистика и межкультурная коммуникация с учетом эмоционального фактора». Автореф. дисс. на соис.уч. ст. к.п.н. Воронеж, 2001..25с.

18. Языкова Н.В. К проблеме построения учебного курса «Методика обучения иностранным языкам в общеобразовательных учреждениях» // *Иностранный язык в школе* М., 1999. №5. с.63-68.

19. *The Inversive English Course. A Challenging program for Serious Students ...* 1996, С.4-5;

20. Izquierdo B.L., Bailey D. *Complex Noun phrases and Complex Nominals: Some Practical Considerations* // *TESL Reporter*. - 31 Hawaii, 1998, №1, p. c. 19-29.

21. «Fly High English» Т., 2009; «Happy English 2», М. 1997 «Bonjour la France» Т., 2002.